



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	



RAQAMLI SPORT PEDAGOGIKASI VA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
 "Yakka kurash" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'quvchilarning harakat faolligini kuzatish, mashqlar bajarilish texnikasini video orqali tahlil qilish, individual rivojlanish ko'rsatkichlarini qayd etish, elektron portfolio yuritish va mustaqil mashg'ulotlar bo'yicha kompetentlik diagnostik, differensial, inklyuziv, refleksiv, kommunikativ, raqamli va sog'lomlashtiruvchi komponentlarning integratsiyasi asosida shakllanadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, adaptiv sport, mentorlik, raqamli texnologiyalar, diagnostik, differensial, inklyuziv, refleksiv, kommunikativ, raqamli va sog'lomlashtiruvchi.

Abstract: In this article, digital sports pedagogy and the development of professional competence of future physical education teachers are formed based on the integration of diagnostic, differential, inclusive, reflexive, communicative, digital and health-improving components, including monitoring students' motor activity, analyzing exercise techniques via video, recording individual development indicators, maintaining an electronic portfolio, and independent training.

Key words: competence, adaptive sports, mentorlike, digital technologies, diagnostic, differential, inclusive, reflexive, communicative, digital and health-promoting.

Аннотация: В данной статье цифровая спортивная педагогика и развитие профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры формируются на основе интеграции диагностического, дифференцированного, инклюзивного, рефлексивного, коммуникативного, цифрового и оздоровительного компонентов, включая мониторинг двигательной активности учащихся, анализ техники выполнения упражнений с помощью видеозаписи, регистрацию показателей индивидуального развития, ведение электронного портфолио и самостоятельную подготовку.

Ключевые слова: компетентность, адаптивный спорт, тренерская работа, цифровые технологии, диагностика, дифференциальная диагностика, инклюзивность, рефлексивность, коммуникативный подход, цифровые технологии и пропаганда здорового образа жизни.

KIRISH

Raqamli sport pedagogikasi ham bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning harakat faolligini kuzatish, mashqlar bajarilish texnikasini video orqali tahlil qilish, individual rivojlanish ko'rsatkichlarini qayd etish, elektron portfolio yuritish va mustaqil mashg'ulotlar bo'yicha tavsiyalar berish mumkin. Biroq raqamli vositalar pedagogning o'rnini bosmaydi; ular pedagogik qarorni asoslashga yordam beruvchi metodik imkoniyat sifatida qaralishi kerak.

Sport mentorligi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida samarali yo'nalishlardan biridir. Mentorlik oddiy maslahat berish emas, balki tajribali pedagog yoki murabbiyning talaba bilan maqsadli ishlashi, uning kasbiy qiyofasini shakllantirishi, metodik qarorlar qabul qilishga o'rgatishi va kasbiy qadriyatlarni singdirishidir. Sport sohasida mentorlikning ahamiyati yanada yuqori, chunki jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki namuna ko'rsatuvchi, ruhlantiruvchi va tarbiyalovchi shaxsdir.

Kasbiy identifikatsiya ham mazkur jarayonning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'zini faqat "sport mashqlarini o'rgatuvchi" sifatida emas, balki sog'lom avlod tarbiyasiga mas'ul pedagog, o'quvchi shaxsining jismoniy va irodaviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi mutaxassis sifatida angla-

ganda, uning kasbiy pozitsiyasi mustahkamlanadi. Kasbiy identifikatsiya kuchli bo'lgan pedagog o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashadi, tashabbus ko'rsatadi va dars mazmunini hayotiy ehtiyojlar bilan bog'lay oladi.

Xorijiy tajribalar tahlili ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Finlandiya tajribasida jismoniy tarbiya sog'lom hayot, o'quvchi farovonligi va individual rivojlanish bilan bog'liq holda tashkil etiladi. Bu yerda dars jarayonida raqobatdan ko'ra ishtirok, sog'lom harakat va o'zini yaxshi his qilish tamoyillariga e'tibor kuchli. Kanada tajribasida inklyuziv jismoniy tarbiya va moslashtirilgan sport faoliyatiga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olish, jamoaviy hamkorlik va xavfsiz muhit yaratish asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Yaponiya tajribasida jismoniy tarbiya intizom, jamoaviylik, mehnatsevarlik va milliy tarbiya bilan uyg'unlashgan holda olib boriladi. Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar, sog'lomlashtirish dasturlari va sport infratuzilmasidan samarali foydalanish bo'lajak pedagog tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V.A. Slastenin pedagogik kompetentlikni o'qituvchining kasbiy-pedagogik vazifalarni ijodiy hal etishi, shaxs rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi va ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsata olishi bilan bog'laydi.¹ Bu fikr jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatiga tatbiq etilganda, pedagog faqat mashg'ulot tashkilotchisi emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanish yo'lini kuzatuvchi, qo'llab-quvvatlovchi va to'g'ri yo'naltiruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek pedagogik qarashlarida ham ta'lim jarayonini shaxs kamoloti bilan bog'lash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. A.R. Xodjaboyev, I.A. Xusanov va U.N. Nishonaliyev kasbiy ta'lim metodologiyasida bo'lajak mutaxassis tayyorgarligini nazariy bilim, amaliy faoliyat va shaxsiy sifatlar uyg'unligi sifatida talqin etadilar.² Bu yondashuv jismoniy tarbiya o'qituvchisi tayyorgarligida ham muhim: talaba sport texnikasini bilishi, uni o'rgata olishi, o'quvchi shaxsini tushunishi, xavfsiz va tarbiyaviy muhit yarata olishi kerak.

Shunday qilib, adaptiv sport-pedagogik kompetentlik bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini yangi mazmunda tushuntirish imkonini beradi. Ushbu kompetentlik diagnostik, differensial, sog'lomlashtiruvchi, inklyuziv, raqamli, refleksiv va mentorlik faoliyati bilan boyitilgan yaxlit kasbiy sifatdir. Uning shakllanishi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning amaliy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv orqali jismoniy tarbiya darsi faqat jismoniy mashqlar majmuasi emas, balki o'quvchi shaxsining sog'lom, irodali, faol va ijtimoiy moslashgan inson sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi pedagogik maydonga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va qiyosiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Mavzuga oid pedagogik, psixologik hamda ilmiy-metodik adabiyotlar o'rganilib, raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, adaptiv sport-pedagogik kompetentlikning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi. Tadqiqotda ilmiy manbalarni umumlashtirish, tahlil qilish va sintez qilish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p omilli tizim hisoblanadi. Mazkur jarayonda talabaning nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishi, kasbiy qadriyatlarini anglab yetishi hamda pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham adaptiv sport-pedagogik kompetentlikni shakllantirish faqat alohida fanlarni o'qitish orqali emas, balki yaxlit pedagogik muhit, maqsadli metodik ta'minot va uzviy amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra doimiy ravishda o'zgarib turadigan vaziyatlar bilan bog'liq. Har bir sinfning jismoniy tayyorgarlik darajasi, har bir o'quvchining sog'lig'i, qiziqishi, sportga munosabati hamda psixologik holati turlicha bo'ladi. Shu sababli pedagog har bir vaziyatni oldindan belgilangan sxema asosida emas, balki mavjud sharoitga mos ravishda hal qilishi lozim. Bu esa moslashuvchan fikrlash, vaziyatli tahlil va tezkor pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida adaptiv kompetentlikning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan ularning pedagogik amaliyot davridagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlar real pedagogik muhitda sinovdan o'tadi. Aynan amaliyot jarayonida talaba o'quvchilar bilan ishlashning murakkab jihatlarini anglay boshlaydi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda kasbiy o'sish ehtiyojini his qiladi.

1 Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2008. – С. 221–228.

2 Ходжабоев А.Р., Хусанов И.А., Нишоналиев У.Н. Касбий таълим методологияси. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – Б. 47–56.



Bu jarayonda refleksiya alohida o'rin tutadi. Refleksiya orqali talaba o'z faoliyatini baholaydi, muvaffaqiyat va kamchiliklarini aniqlaydi, kelgusidagi faoliyatini rejalashtiradi. Pedagogik refleksiya kasbiy rivojlanishning ichki mexanizmi hisoblanadi. O'z faoliyatini tahlil qila oladigan pedagog kelajakda ham o'z ustida ishlashga moyil bo'ladi. Aksincha, refleksiya yetarli shakllanmagan holatda pedagogik faoliyat stereotiplarga asoslanib qolishi mumkin.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda sport mentorligining ham ahamiyati katta. Tajribali murabbiy va pedagoglar bilan hamkorlik qilish talabalarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi. Mentorlik jarayonida talabalar sport mashg'ulotlarini tashkil etish, jamoani boshqarish, motivatsiyani shakllantirish va pedagogik muammolarni hal qilishning amaliy tajribalarini o'zlashtiradilar. Bu esa nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlaydi.

1-jadval: **Adaptiv sport-pedagogik kompetentlikning tarkibiy ko'rsatkichlari**

Komponent	Mazmuni	Shakllanish natijasi
Diagnostik kompetentlik	O'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash	Individual yondashuvni amalga oshirish
Differensial kompetentlik	Mashg'ulotlarni imkoniyatlarga moslashtirish	Har bir o'quvchi uchun qulay ta'lim muhiti
Inklyuziv kompetentlik	Maksimal ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash	Ta'limning inklyuzivligini ta'minlash
Refleksiv kompetentlik	O'z faoliyatini baholash va takomillashtirish	Kasbiy o'sishga erishish
Raqamli kompetentlik	AKT va raqamli vositalardan foydalanish	Ta'lim samaradorligini oshirish
Sog'lomlashtiruvchi kompetentlik	Sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish	O'quvchilarning salomatligini mustahkamlash
Kommunikativ kompetentlik	Pedagogik muloqotni samarali tashkil etish	Ijroiy psixologik muhit yaratish

Jadvalda keltirilgan komponentlar adaptiv sport-pedagogik kompetentlikning yaxlit tuzilishini ifodalaydi. Mazkur komponentlarning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, ular o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Masalan, diagnostik kompetentlik shakllanmagan pedagog differensial yondashuvni to'liq amalga oshira olmaydi. Chunki o'quvchilarning real imkoniyatlari aniqlanmasdan turib, ularga mos topshiriqlarni tanlash mushkul.

Shuningdek, refleksiv kompetentlik boshqa barcha komponentlarning rivojlanishini ta'minlovchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Pedagog o'z faoliyatini tahlil qilgan sari metodik xatolarini anglaydi va ularni bartaraf etishga intiladi. Bu esa kasbiy mahoratning muntazam rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Raqamli kompetentlik zamonaviy ta'lim sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini videotasvirga olish, harakat texnikasini tahlil qilish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini elektron bazalarda yuritish keng qo'llanilmoqda. Shu sababli bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari zarur.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi bevosita kasbiy identifikatsiya bilan bog'liq. Kasbiy identifikatsiya shaxsning o'zini muayyan kasb vakili sifatida anglashi, ushbu kasbning qadriyatlarini qabul qilishi va o'z faoliyatini shu qadriyatlar asosida tashkil etishidir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida kasbiy identifikatsiya odatda bir necha bosqichlarda shakllanadi. Dastlabki bosqichda talaba kasb haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlar orqali kasbning mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydi. Pedagogik amaliyot davrida esa o'zini real pedagogik faoliyat subyekti sifatida his etadi. Yakuniy bosqichda esa kasbiy qadriyatlar shaxsning ichki e'tiqodiga aylanadi.

Kasbiy identifikatsiyaning rivojlanganligi pedagogning kasbga sadoqati, tashabbuskorligi va innovatsion faoliyatga tayyorligida namoyon bo'ladi. O'z kasbini qadrlaydigan pedagog o'z ustida ishlashga, yangi metodlarni o'rganishga va ta'lim sifatini oshirishga intiladi.

Finlandiya ta'lim tizimida jismoniy tarbiya fanining asosiy vazifasi sport natijalariga erishish emas, balki sog'lom hayot tarzini shakllantirishdan iborat. Maktablarda o'quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinadi va har bir bolaning muvaffaqiyat hissini boshdan kechirishi uchun sharoit yaratiladi. Bu yondashuv adaptiv sport-pedagogik kompetentlik tamoyillariga yaqin hisoblanadi.

Kanadada esa "Physical Literacy" konsepsiyasi keng qo'llaniladi. Ushbu konsepsiya insonning butun hayoti davomida jismoniy faollikni saqlab qolishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan. Bu yerda jismoniy tarbiya nafaqat sport mahoratini rivojlantirish, balki sog'lom turmush tarzini qaror toptirish vositasi sifatida qaraladi.

Yaponiya tajribasida jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'langan. Sport mashg'ulotlari davomida intizom, hurmat, jamoaga sodiqlik va mas'uliyat kabi sifatlar shakllantiriladi. Bu holat sportning tarbiyaviy imkoniyatlarini keng namoyon etadi.

Janubiy Koreyada esa raqamli sport pedagogikasi jadal rivojlanmoqda. Maktablarda raqamli monitoring tizimlari, sport simulyatorlari va interaktiv o'quv platformalaridan foydalanish keng tarqalgan. Natijada o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniq kuzatish va individual tavsiyalar berish imkoniyati yaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, adaptiv sport-pedagogik kompetentlik bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy qiyofasini tavsiflovchi yangi pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur kompetentlik diagnostik, differensial, inklyuziv, refleksiv, kommunikativ, raqamli va sog'lomlashtiruvchi komponentlarning integratsiyasi asosida shakllanadi. Uning rivojlanishi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining amaliy ifodasi bo'lib, pedagogning kasbiy moslashuvchanligi va innovatsion faoliyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. - Москва: Академия, 2008. - С. 221-228.
2. Ходжабоев А.Р., Хусанов И.А., Нишоналиев У.Н. Касбий таълим методологияси. - Тошкент: ТДПУ, 2006. - Б. 47-56.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.